



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
SURXONDARYO VILOYATI  
TERMIZ SHAHAR HOKIMINING  
Q A R O R I**

Termiz shahri, At-Termiziy ko‘chasi 5-uy. 190112, tel.: 0 (376) 224-16-40, fax: 0(376) 224-13-12, termiz.sh@exat.uz

2022 - yil 17 - yanvar

18-8-121-Q/22

Termiz shahar hokimligi

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Hunarmandchilik faoliyatini  
qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari  
to‘g‘risida” 2021-yil 30-dekabrda PQ-77-son hamda shu haqida viloyat  
hokimining 2021-yil 12-yanvardagi 9-8-0-Q/22-sonli qarorlari ijrosini  
ta‘minlash to‘g‘risida**

Shahar aholisini hunarmandchilikka jalb qilish tizimini takomillashtirish, “usta-shogird” an‘analari asosida mahallalarda yoshlarga hunar o‘rgatish va bandligini ta‘minlash, shuningdek, kambag‘allikni qisqartirish hamda hunarmandchilikni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish maqsadida

**Q A R O R Q I L A M A N:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Hunarmandchilik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 30-dekabrda PQ-77-son hamda shu haqida viloyat hokimining 2021-yil 12-yanvardagi 9-8-0-Q/22-sonli qarorlari rahbarlik, ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan:

2022-yildan boshlab Aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg‘armasi hisobidan:

“Usta-shogird” an’analari asosida yoshlarga hunar o’rgatayotgan hunarmandlarga – shogirdlar tayyorlashi, zarur xomashyo sotib olishi va shogirdlarni ish haqi bilan ta’minlashi uchun 6 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravaridan kam bo‘lmagan miqdorda;

shogirdlarga – mustaqil faoliyatini boshlashi uchun zarur asbob-uskuna va jihozlarni sotib olishi, shuningdek, ustalarga – internet saytlarini tashkil etish, o‘z mahsulotlarini jahon elektron savdo maydonchalariga chiqarish va reklama xarajatlarining 50 foizi, biroq bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravari miqdoridan oshmaydigan qismiga subsidiyalar ajratish tartibi joriy etilganligi;

subsidiya ajratiladigan hunarmandlar va shogirdlar hisobi “Hunarmand” uyushmasi tomonidan yuritilib, Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligining “Onlayn mahalla” elektron platformasi bilan integratsiya qilinganligi;

2022-yildan boshlab “Hunarmand” uyushmasi a’zolari uchun:

ijtimoiy soliq stavkasi yiliga bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari miqdorida belgilanganligi;

faoliyat yuritish joyidan qat’i nazar, kommunal infratuzilma xizmatlari (elektr energiyasi, suv ta’minoti, kanalizatsiya, gaz ta’minoti va issiqlik ta’minoti) haqini to‘lash aholi uchun belgilangan tariflar bo‘yicha va shartlar asosida amalga oshirilishi belgilab qo‘yilganligi;

savdo pavilonlari 150 kvadrat metrdan kam bo‘lmagan maydonda, Qurilish vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan namunaviy loyiha asosida tashkil etilishi;

savdo pavilonlarini tashkil qilish (qurish) mahalliy budjet mablag‘lari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshirilishi;

foydalanishga topshirilgan savdo pavilonlari Savdo-sanoat palatasining hududiy boshqarmalariga operativ boshqaruv huquqi bilan berilishi;

Savdo-sanoat palatasi va “Hunarmand” uyushmasi savdo pavilonlari orqali hunarmandchilik mahsulotlarini sotib olish hamda realizatsiya va eksport qilish ishlarini tizimli tashkil etishga mas’ul bo‘lishi;

savdo pavilonlari xorijiy va mahalliy turistlar uchun mo‘ljallangan turistik marshrutlarga kiritilishi belgilanganligi inobatga olinib, e‘tirof etib o‘tilsin.

3. Termiz shahrida 2022-yilda hunarmandchilikni rivojlantirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" ilova muvofiq tasdiqlansin.

4. "Yo'l xaritasi"da nazarda tutilgan chora-tadbirlarning o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishi yuzasidan mas'ul bo'lgan shahar hokimining o'rinbosarlari, tashkilotlar rahbarlariga shaxsiy javobgarlik yuklansin.

5. Savdo-sanoat palatasi shahar hududiy bo'limi v.b (D.Ibragimov), viloyat "Hunarmand" boshqarmasi (M.Jo'rayeva) bilan hamkorlikda "Yo'l xaritasi"da nazarda tutilgan chora-tadbirlar ijrosi yuzasidan har oyning yakuni bilan shahar hokimligiga axborot kiritib borsin.

6. Shahar hokimining birinchi o'rinbosari G'.Elamanov, Savdo-sanoat palatasi shahar hududiy bo'limi v.b (D.Ibragimov), viloyat "Hunarmand" boshqarmasi (M.Jo'rayeva) bilan hamkorlikda 2022-yil 1-iyunga qadar Termiz shahar markazida hunarmandlar ishlab chiqargan mahsulotlar savdosiga ixtisoslashgan hunarmandchilik mahsulotlari savdo pavilonlari (keyingi o'rinlarda – savdo pavilonlari)ni tashkil etsin.

7. Shahar hokimining birinchi o'rinbosari G'.Elamanov, viloyat "Hunarmand" boshqarmasi (M.Jo'rayeva), O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi shahar bo'limi boshlig'i N.Ashurov 2022-yil 1-aprelga qadar shahar markazi hamda davlat xizmatlari markazi binosida doimiy faoliyat ko'rsatuvchi milliy hunarmandchilik mahsulotlari ko'rgazmalari va savdo rastalari faoliyatini yo'lga qo'ysin.

8. Shahar hokimining o'rinbosarlari (G'.Elamanov, O.Tursunov), Savdo-sanoat palatasi shahar hududiy bo'limi v.b (D.Ibragimov), viloyat "Hunarmand" boshqarmasi (M.Jo'rayeva) bilan hamkorlikda 2022-yildan boshlab, har yili "O'zekspomarkaz" pavilonlarida "Craft fair Uzbekistan" xalqaro hunarmandchilik mahsulotlari va texnologiyalari yarmarkasida ishtirok etib borsin.

9. Shahar hokimining birinchi o'rinbosari G'.Elamanov, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi viloyat hududiy boshqarmasi, Savdo-sanoat palatasi shahar hududiy bo'limi v.b (D.Ibragimov), viloyat "Hunarmand" boshqarmasi (M.Jo'rayeva) bilan hamkorlikda:

mahallalarda hunarmandchilikni rivojlantirish bo'yicha hokim yordamchilari va "Hunarmand" boshqarmasining shahardagi mas'ul xodimlari

bilan o‘zaro samarali hamkorligini yo‘lga qo‘yish;

hokim yordamchilari va “Hunarmand” boshqarmasining shahardagi mas’ul xodimlari bilan birgalikda mahallalarda hunarmandchilik loyihalarini shakllantirish va amalga oshirish choralarini ko‘rsin.

10. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish shahar hokimining birinchi o‘rinbosari G‘.Elamanov zimmasiga yuklansin.

Hokim



Xudayberdiyev I. B.

Термиз шаҳар ҳокимининг  
2022 йил 17 январдаги  
18-8-121-Q/22-сон қарорига  
1-илова

**Surxondaryo viloyati Termiz shahrida 2022-yilda hunarmandchilikni rivojlantirish bo'yicha**

**“YO'L XARITASI”**

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Moliyalashtirish manbalari	Ijro muddati	Amalga oshirish uchun mas'ullar
<b>I. Hunarmandchilik sohasida marketing va savdo tizimini takomillashtirish, eksportga ko'maklashish va hunarmandchilik mahsulotlarini targ'ib qilish</b>				
1.	<p>1. Termiz shahar markazida hunarmandlar ishlab chiqaradigan mahsulotlar savdosiga ixtisoslashgan hunarmandchilik mahsulotlari savdo pavilonlarini tashkil etish.</p> <p>Bunda: savdo pavilonini 150 kvadrat metrdan kam bo'lmagan maydonda, Qurilish vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan namunaviy loyiha asosida tashkil etish; foydalanishga topshirilgan savdo pavilonlarini Savdo-sanoat palatasining hududiy boshqarmalariga operativ boshqaruv huquqi bilan berish; savdo pavilonlari orqali hunarmandchilik mahsulotlarini sotib olish hamda realizatsiya va eksport qilish ishlarini tizimli tashkil etish; savdo pavilonlari manzilini xorijiy va mahalliy turistlar uchun mo'ljallangan turistik marshrutlarga kiritish.</p> <p>2. Shaharning o'ziga xos hunarmandchilik an'analari asosida savdo pavilonlarining namunaviy loyihasini ishlab chiqish.</p>	Mahalliy budjet va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa mablag'lar	2022-yil 1-iyunga qadar       2022-yil fevral	Shahar hokimining o'rinbosarlari (G'.Elamanov, K.Ashurov), Savdo-sanoat palatasi shahar hududiy bo'limi v.b (D.Ibragimov), viloyat "Hunarmand" boshqarmasi (M.Jo'rayeva), shahar Qurilish boshqarmasi (J.Mingliboyev)

2.	Shahar markazi hamda shahar Davlat xizmatlari markazi binosida doimiy faoliyat ko'rsatadigan milliy hunarmandchilik mahsulotlari ko'rgazmalari va savdo rastalari faoliyatini yo'lga qo'yish.		2022-yil 1-aprelga qadar	Shahar hokimining birinchi o'rinbosari G'.Elamanov viloyat "Hunarmand" boshqarmasi (M.Jo'rayeva), Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi shahar bo'limi (N.Ashurov),
3.	"O'zekspomarkaz" pavilonlarida "Craft fair Uzbekistan" xalqaro hunarmandchilik mahsulotlari va texnologiyalari yarmarkasida ishtirok etib borish.	Eksportni rag'batlantirish agentligi	Har yili	Shahar hokimining birinchi o'rinbosarlari (G'.Elamanov ,O.Tursunov), Savdo-sanoat palatasi shahar hududiy bo'limi v.b (D.Ibragomov), viloyat "Hunarmand" boshqarmasi (M.Jo'rayeva),
<b>II. Hunarmandchilik faoliyati uchun zarur bo'lgan xomashyo bazasini yaratish</b>				
4.	Hunarmandchilik mahsulotlari uchun xomashyo yetishtirish, uni qayta ishlash va sotishga ixtisoslashgan klasterlar faoliyatini to'laqonli tashkil etish. Bunda: klasterlar ustav kapitalini teng ulushlarda Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasi va Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi hisobidan shakllantirish; klasterlarga hunarmandchilik va ipak mato, ipak gilamlari to'qish faoliyatini tashkil etish hamda qayta tiklanadigan xomashyo (tutzorlar, qattiq turdagi daraxtlar) bazasini yaratishi uchun zarur bo'lgan yer maydonlarini paxtadan qisqartirilgan yerlar hisobidan ajratish.	Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi, Xotin- qizlarni qo'llab- quvvatlash davlat jamg'armasi	2022-yil yanvar	Shahar hokimining o'rinbosarlari (G'.Elamanov, Z.Meyliyev), shahar Bandlik bo'limi v.b (N.Tadjibayeva), shahar moliya bo'limi (A.Safarqulov)
<b>III. "Usta-shogird" an'alarini yanada rivojlantirish orqali aholini hunarmandchilikka keng jalb qilish</b>				

5.	<p>Milliy hunarmandchilik va xalq amaliy san'ati yo'nalishlari bo'yicha bolalar musiqa va san'at maktablari, "Barkamol avlod" bolalar markazi hamda kasbga o'qitish maskanlarida o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish.</p> <p>Bunda, o'quv jarayonlariga mentor sifatida Xalq amaliy san'ati ustalari milliy katalogiga kirgan va uzoq yillik tajribaga ega bo'lgan ustalarni jalb etish.</p>	Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi, Aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg'armasi	Doimiy	<p>Shahar hokimining birinchi o'rinbosari G'.Elamanov, Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish markazi, viloyat "Hunarmand" boshqarmasi (M.Jo'rayeva),</p>
6.	<p>Farg'ona viloyatining Qo'qon shahrida yosh hunarmandlar o'rtasida o'zaro tajriba almashish va sog'lom raqobatni yo'lga qo'yish maqsadida o'tkaziladigan "Yosh hunarmandlar" festivaliga shahar hamda viloyat bosqichlarida saralangan yosh hunarmandlar ishtirokini ta'minlash.</p>	Mahalliy budjet	2022-yil iyul - sentabr	<p>Shahar hokimining birinchi o'rinbosari G'.Elamanov, viloyat "Hunarmand" boshqarmasi (M.Jo'rayeva), Yoshlar ishlari agentligi shahar hududiy bo'limi (J.Saloxitdinov),</p>
7.	<p>Shahardagi har bir hunarmandchilik kirib borgan mahallalarda hunarmandchilik loyihalarini amalga oshirish.</p> <p>Bunda, loyiha tashabbuskorlariga har tomonlama ko'maklashish yuzasidan shahardagi hokim yordamchilari va "Hunarmand" uyushmasi bo'limining o'zaro hamkorlik tizimini yaratish.</p>		2022-yil davomida	<p>Shahar hokimining birinchi o'rinbosari G'.Elamanov, viloyat "Hunarmand" boshqarmasi (M.Jo'rayeva), Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi viloyat hududiy boshqarmasi.</p>